

TEXNIKUMLARDA AMALIYOTLARNI TASHKILLASHTIRISH METODIKASI



Abstract:

Ushbu ilmiy maqolani mazmuni shundan iboratki, Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi, O'quv-ishlab chiqarish majmuasida kasbiy ta'lim berishning vazifalari, Respublikamizda jadal rivojlanib borayotgan ta'lim tizimi, Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish bo'yicha barcha ma'lumotlar berib o'tilgan.

Key words:

Shaxs, Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat, xizmat ko'rsatish, Shaxs va davlat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Pedagog-olimlar.

Author of the article:

Sarbinaz Tajibaeva Tlegenovna

Workspace (Education subject)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining «Loyiha boshqaruvi» mutaxassisligi magistranti

KIRISH

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohasi bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi.

Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi. O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olishi uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidart o'tish kafolatlanadi.

Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart. Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi». Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fiiqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi. Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qiliishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim.

Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning bar tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

2017 - 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi o'rta muddatli istiqbolda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan eng muhim dasturiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida ta'lim sohasiga doir qator islohotlar amalga oshirildi.

Ta'lim tizimini xalq bilan muloqot va ilg'or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga. asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi « O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

O'quv-ishlab chiqarish majmuasida kasbiy ta'lim berishning vazifalari etib quyidagilar belgilab qo'yildi: o'quvchilar tomonidan kasb-hunar ko'nikmalarining o'zlashtirilishmi ta'minlash, maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasblarni o'rgatish orqali ularning kasb-hunar olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish; kasbiy ta'lim berish jarayonida «usta-shogird» an'analari, mahalliy va xorijiy ilg'or tajribam o'rgangan holda eng maqbul usullardan foydalanish hamda kasblarning malaka talablari va kasbiy ta'lim berish jarayonining metodik ta'minotini takomillashtirib borish; kasbiy ta'lim berish jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali kasbiy ta'lim berish sifatini ta'minlash; o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlagan holda mehnat jarayonini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning mehnat faoliyati bilan faol shug'ullanishi imkonini beruvchi kasb egasi bo'lishlarini ta'minlash; mehnat bozori uchun maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etilmaydigan kasblar bo'yicha raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash.

Respublikamizda jadal rivojlanib borayotgan ta'lim tizimi, ilm-fan va texnologiyalar mutloqa boshqacha mutaxassisni tayyorlashni davlat va jamiyat oldiga vazifa qilib qo'ymoqda. Bu esa dunyo mehnat bozorida raqobatbardosh, intellektual salohiyati va professionallik darajasi yuqori mutaxassis kadrlarni tayyorlashni, va bu mutaxassis kasbiy mahoratidan tashqari xorijiy tillarni va zamonaviy kompyuter texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi F-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni asosida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, unda " ... ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" masalalariga katta e'tibor qaratilgan

ASOSIY QISM

Pedagog-olimlar va amaliyotchilar o'z ishlarini mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni, yangi g'oyalarni, bironta metod, usul, vosita, mashq, o'yin yoki ularning majmuasi samarasini, qaysi bir yoki bir guruh talaba-talabalarning bilim, saviya, hulq-atvorlarini o'rganishda, umuman olganda ta'lim-tarbiya mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda pedagogikaning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Kasbiy pedagogika talabalarga ilmiy-tadqiqot metodlarni taqdim qilganda ularni o'rta va o'rta maxsus bilim yurtlarda tahsil olayotgan yosh avlodni tarbiyalash, o'z kasbiga bilimli qilish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan tashqi va ichki aloqa va munosabatlarni toptirishga, ularning ijobiy va salbiy tomonlarni ajratishga, bilim berishning optimal yo'llari, metod va vositalarini ilmiy tekshirishlar o'tkazib aniqlashga o'rgatadi. Talaba-bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi sifatida ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari qanchalik to'g'ri tanlansa, bu jarayonni takomillashtirish darajasi shunchalik yuksaladi. O'qitish va tarbiyalashdan avval hamda shuning ayni paytida tekshirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot metodlari tizimi kasbiy pedagogika fanida to'la yaratilgan.

Respublikamizda har bir tashkilot va ta'lim muassasasining o'zining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Davlat xalq xo'jaligi rejalariga asosanib, ta'lim muassasalari ajratilgan kapital mablag'larning doimiy ravishda ortib borishi, maktab binolari va ularning jihozlari, kabinet, kompyuter xonalari va laboratoriyalari, muassasa xududi, sport maydoni va stadionlari, kutubxonlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalari vako'rgazmaliqurollarini ko'payishi, yaxshi saqlashi va ta'mirlashi, talaba-talabalar soni, o'qituvchi kadrlar soni va ilmiy darajalari, ta'lim muassasibarpo etilishi, xo'jalik kelishuvlari va ular orqali kelayotgan mablag'larni o'rnatilgan tartibga ko'ra tasarruf etishi qonun va qonun osti hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Bularning hammasi-davlat, jamiyat, xalq nazoratida bo'lib va ishni doimo yaxshilash uchun statistik ma'lumotlarni jamlash va aniqlash tashkiloti orqali aniqlanadi. Tadqiqotchi pedagog uchun statistik ma'lumotlarni tahlil qilish-ta'lim-tarbiya jarayoniga bularning alohida qaysi biri yoki majmua holatda ta'sir ko'rsatishini aniqlash va pedagogik jamoaga tavsiyalarni berish ko'rsatib o'tilgan.

Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan. Bunday metod talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndiradi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar (innovatsion pedagogik texnologiyalar)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormokda. Innovatsion texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustakil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

XULOSA

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga kodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustakil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Talabalarning mustaqillik darajasini sekin-asta oshirib boruvchi mashqlarni tanlashda, ularning xilma-xil bo'lishi kerakligini ham esdan chiqarmaslik zarur. Bu hol, bir tomondan, talabalarning qiziqishini so'ndirmaslik uchun, ikkinchi tomondan, talabalarni o'z bilimlarini har xil sharoitda tatbiq etish usullariga o'rgatish uchun muhimdir.

Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirishning hamda mashqlar jarayonida uquv va malakalar hosil qilishning samaradorligi mashqlarning soniga, ularni o'kazish tizimligi va muntazamligiga, shuningdek, vaqt jihatidan taqsimlanishiga bog'liq. Vaqt jihatidan taqsimlanishi esa, o'z navbatida, o'rganiladigan materialning xarakteriga bog'liq. Tarkibida asosiy masalalar bo'lgan, mavzu yoki fanning asosiy qonun-qoidalarini aks ettiradigan material puxta mustahkamlanishi kerak, bu esa bilimlarni bundn keyingi o'zlashtirilishiga ishonchli asos bo'ladi. O'rganish vaqtida talabalar qiynaladigan va tipik xatolarga yo'l qo'yadigan materialga oid mashqlar tez-tez va ko'p o'tkazilishi darkor.

Ta'lim metodlarini tanlash birinchidan, darsda ko'zda tutilgan o'quv maqsadlariga bog'liq. Masalan, darsning maqsadi yangi bilimlarni o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchi bu bilimlarni o'zi bayon etadi yoki talabalarning kitob bilan mustaqil ishlashini tashkil qiladi. Birinchi holda u turli xil narsalarni ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladigan hikoya, tushuntirish, ma'ruza yoki suhbat usulidan foydalanishi mumkin. Agar

darsda talabalarda amaliy ko'nikmalar hosil qilinishi kerak bo'lsa, buning uchun mashq qilish usuli qo'llaniladi.

Ikkinchidan, o'rganiladigan fanning mazmum va darsning aniq materialiga bog'liq bo'ladi. Masalan, «Serviz xizmati» fanida o'rganish kiyimga ishlov berishda bir xil usullar, ishlab chiqarish ta'limi darslarida esa butunlay boshqa usullar qo'llaniladi. Ayrim hollarda o'rganilayotgan texnologik jarayonlarni talabalar bevosita kuzatishlari mumkin. Shuning uchun o'qituvchi bu kuzatishni tajribalarda yoki mehnat faoliyati jarayonida tashkil etadi. Agar ularni bevosita kuzatish mumkin bo'lmasa, o'qituvchi turli xil ko'rsatmali qurollarni namoyish qilishdan foydalanadi.

Uchinchidan, talabalarning ilgari tayyorgarlik darajasiga va shaxsiy tajribasiga bog'liq. Agar yangi material talabalarga butunlay notanish bo'lsa, o'qituvchi buni ko'rsatmali qurollar va tajribalarni ko'rsatish bilan qo'shib o'zi bayon qiladi.

Nihoyat, to'rtinchidan, ma'lum bir o'qitish usulini tanlash asbob-uskunalar, ko'rsatmali qurollar va o'quv jarayonining normal o'tishini ta'minlaydigan boshqa shart-sharoitlarning borligiga, shuningdek, o'qituvchining tajribasi, ish uslubi va shaxsiy sifatlariga bog'liq. O'qituvchining vazifasi-bu shart-sharoitlarni yaxshilash hamda o'zining pedagogik mahoratini doimo takomillashtirib borishdan iborat.

Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:
zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

o'rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o'ziga xosligi;
xususiy fanlar metodikasining o'ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo'yiluvchi talablarning o'zaro aloqadorligi;

muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;

u yoki bu mavzuni o'rganishga ajratilgan vaqt;

ta'lim oluvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;

ta'lim oluvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;

o'quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta'minlanganlik darajasi, jihozlar, ko'rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;

o'qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darajasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatleri;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Muslimov N.A., Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2014. 455 b.

2.Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2004.-127 b.

3.Nishonaliev.U.N, Tolipov.O'Q, Sharipov.Sh.S Kasbiy ta'lim pedagogikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: TDPU, 2007. 374 b.

4. To'raqulov X.A., Hasanboev J.J., Usmanov N.O', Alqarov I.Sh., To'raqulov O.X. Ilmiy tadqiqot asoslari. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2011. (14-21 betlar).